

Leksikologiya va frazeologiya bo‘limiga oid mavzularni o‘qitishda foydalaniladigan topshiriqlar.

Abdujalilova Feruza

JDPI o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada leksikologiya va frazeologiya bo‘limiga oid mavzularni o‘qitishda foydalaniladigan topshiriqlar turlari haqida fikr yuritilgan va ba’zi namunalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: leksikologiya, frazeologiya, topshiriq, ibora.

Аннотация: В статье были рассмотрены виды заданий, используемых при обучении темам, относящимся к разделу лексикология и фразеология, и приведены некоторые примеры.

Ключевые слова: лексикология, фразеология, задание, словосочетание.

Annotation: The article gives an idea of the types of assignments that will be supported in teaching topics of the Department of lexicology and phraseology, and some examples are presented.

Keywords: lexicology, phraseology, assignment, phrase.

Bugungi zamonaviy o‘qituvchi faqat dars beruvchi emas, balki darsning yo‘naltiruvchisi hisoblanadi. Shuning uchun ham u o‘zida bor bo‘lgan intellektual qobiliyatlarini ishga solib, talabani o‘ylantiruvchi va muammolarning yechimini hal qilishda ular faoliyatini boshqara borishi kerak.

Ushbu darsni qiziqarli bo‘lishi uchun quyidagicha tashkil qildik.

Darsning maqsadi: Ona tili darslariga o‘quvchilarni qiziqtirish, ularning nutq malakasini, mantiqiy tafakkurini oshirish, ravon fodalash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Darsning jihozi: Darslik, qo‘shimcha adabiyotlar, boshqotirma, test, tarqatma materiallar, mavjud texnik vositalar.

Darsning usubi: Interfaol usullardan, suhbat, munozara, savol-javob

Darsning shiori: Ilmni kitobdan, bilimni hayotdan o‘rgan!

Bugungi darsimizning mavzusi « Leksikologiya va frazeologiyaga oid mashqlar uchun tanlangan gaplar va materiallar ». Mavzuni o‘rganishda quyidagi topshiriqlarni

birin-ketin bajariladi. Avvalo, siz berilgan uch daqiqa ichida quyidagi zakovat savollariga javob berib, o'z guruhingizni aniqlab oling. Topshiriqni to'g'ri bajarsangiz, kartochka olish huquqiga ega bo'lasiz. Darsimiz nihoyasida kartochkalar yordamida g'olib guruh aniqlanadi.

1-topshiriq “Har sohadan bir shingil”.

Bunda talabalar turli xil fanlar bo'yicha tuzilgan savollarga javob berishadi.

Quvnoqlar

1. Kishini jaholatdan nima qutkaradi ? (Ilm)
2. Ko‘z oldingizda turib ko‘rinmaydigan narsa. (Burun)
3. «Avesto»ga asos solgan shaxs nomi. (Zardusht)
4. Notebook so‘zining tarjimai. Daftar.
5. Qayerda daryolar suvsiz, uylar tomsiz bo`ladi.
6. “Sarob” romanining muallifi kim? A. Qahhor.
7. Tipratikan qishda nima qiladi? Uxlaydi.
8. Garchi shuncha mag`rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak.
Shunday ekan manmanlik nechun,
Kibr-u havo nimaga kerak. E. Vohidov.
9. Bodom yozda pishadimi qishda? Kuzda.
10. Uyga mehmon kelganda kim birinchi kiradi. Mehmon.

Zukkolar.

1. Kim nonini toshdan topadi? (Xaykaltarosh)
2. YOg‘ochga yozilgan run bitiklari qaerda saqlanadi (Ermitaj)
3. Zardushtiylikning muqaddas kitobi («Avesto»)
4. SHishani sindirmay ichkari kiradigan narsa nima? (Nur)
5. Urushdan g`alaba emas nima qoladi. Murdalar.
6. shuni bilingki, seni vatan kutadi.gapning turi. To`ldiruvchi EQ
7. “Ufq” romanining muallifi? S. Ahmad
8. Salqin saharlarda bahor gulida,
Binafsha labida yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi yellrning nozi,
Baxmal vodiylarda yerlarda bahor. Zulfiya.
9. Eronning poytaxti. Tehron.
10. 100dan 1ni olib tashlasak nima qoladi. 00

2-topshiriq. “Tezyurar” usuli bo`lib, lesikologiya va fraziologiya bo`limlariga oid savollarga tezlik bilan javob barish kerak bo`ladi.

- 1 .Leksika deb nimaga aytiladi?
2. So‘zning leksik (lug‘aviy) ma‘nosi nima bu haqida ma‘lumot bering?
3. Ko‘p ma‘noli so‘z deb nimaga aytiladi qoidasini ayting?

4. Bosh ma'no, yasama ma'no haqida ma'lumot bering.
5. Bir ma'noli so'z deb nimaga aytiladi?
6. O'z ma'no Ko'chma ma'no deganda nimani tushunasiz ularning farqlari haqida ma'lumot va izohlar bering?
7. Metafara deb nomlangan ko'chish usuli haqida ma'lumot bering?
8. Uning shakliy o'xshashlik turiga misollar va izoh berib o'ting?
9. Metonimiya asosidagi ma'no ko'chishi haqida ma'lumot bering?
10. Sinekdoxa asosidagi ma'no ko'chishiga ta'rif va izoh bering Sinekdoxa nima degani?
11. Vazifadoshlik asosidagi ma'no ko'chishi faqat qaysi turkumda uchraydi bu haqda misollar keltirib o'ting?
12. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari haqida ma'lumot bering?
13. Sinonimik qatorda va undagi dominant deganda nimani tushunasiz?
14. Ko'p ma'noli so'zlar ko'chma ma'nosida boshqa so'zlar bilan sinonim bo'lishi mumkinmi?
15. Ibora (frazologik) ma'nodoshligi haqida ma'lumot bering?
16. Grammatik sinonimlar deganda nimani tushunasiz uning qo'shimcha ma'nodoshligiga to'xtalib o'ting?
17. So'z yasovchi qo'shimchalar ma'nodoshligi haqida ayting?
18. Shartli sinonimlar qanday yuzaga keladi, misollar keltiring.
19. ma'naviy sinonim deb nimaga aytiladi misollar keltiring.
20. Antonim (zid ma'noli so'z) haqida ma'lumot bering?
21. So'z va iboralar (frazologiya) antonimligi haqida ma'lumot bering?
22. Antonim so'zlar yordamida badiiy adabiyotda nimalar hosil qilinadi?
23. Omonim (shakldosh so'zlar deb nimaga aytiladi?)
24. Bir turkum doirasidagi omonimlik haqida ma'lumot bering?
25. Omonim va ko'p ma'noli so'zlarning farqli jihatiga to'xtalib o'ting?
26. Ibora (frazologik) lar haqida misollar keltiring.
27. Bir necha turkum doirasidagi omonimlikga misol va izoh berib o'ting?
28. Urg'usi farqlanuvchi omonimlar haqida ma'lumot bering?
29. Paronim (talaffuzdosh) so'zlar qanday so'zlar
30. Barqaror birikma deganda nimani tushunasiz?
31. Tilshunoslikning barqaror birimani o'rgauvchi bo'limi nima deyiladi? Uning manosi haqida ma'lumot bering?
32. Qo'shma gap shakldagi maqollarga misol keltiring?
31. Sodda gap tpidagi maqollar qanday bo'ladi? misollar keltiring
32. Iboralarni o'rganuvchi bo'lim nima deb ataladi?
33. Ibora nutq jarayonida hosil bo'ladimi? Yoki ...
34. Ibora gapbo'lagi vazifasida keladimi?
35. Ibora shakl va ma'no munosabatiga ko'ra nech turga bo'linadi? Ular qaysilar?

3-topshiriq. Mashqlar ustida ishlash.

489-mashq. Gaplarni ko'chiring. Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi zarur so'zlarni qo'ying. Ma'nosini izohlang.

1. Yo'ldoshboy soy ... pastga tomon qiyalab yurdi. (Habib No'mon)
2. Farzandlari yo'q, haligacha ... zor ular.
3. Eshitgan ... nima deydi.
4. Ishning... bilishini qarang-a.

(Ch. Aytmatov)

(Tirnoqqa, yoqasidan, quloq, ko'zini).

490-mashq. a) quyidagi so'zlarning o'z va ko'chma ma'noda qo'llanishini ko'rsatuvchi gaplar tuzing; b) ular o'rtasidagi ma'no tafovutiga e'tibor bering.

Yer, maktab, qosh, ko'z, etak

493-mashq. Gaplarni o'qing. Shakldosh so'zlarni toping. Ma'nosini tushuntiring

1. Sen ham pastroqqa tush endi. 2. Tushimda alahsiganman, shekilli. (M. Mahmudov)

3. Chang-to'zon mashina oynasiga urilib, yo'lni ko'rsatmay qo'yar edi. 4. Bastakor changda qandaydir kuy chalar edi.

505-mashq. Mashqni o'qing. Bir umumiy ma'noni ifodalovchi so'zlarni toping.

Ularning ma'nosini izohlang.

1. Yuzi nam, yaltiroq o'tloqning betida yuk mashinalarining behisob izlari ko'rinib

turardi. 2. Uning quvnoq chehrasi suv betida qizga yanada yoqimli ko'rindi. (I. Rahim)

3. Basharasiga tushgan qamchi zarbidan yerga yiqildi. (Mirmuhsin)

4-topshiriq . Lug`at bilan ishlash. "Eslab qolaman"

hamkasb	hay'at	xontaxta
hamkorlik	hayallamoq	xosiyat
hamma vaqt	haybat	xoxolamoq
hamroh	hayfsan	xudosi
hamtovoq	hay-hay	xufiyona
hamyurt		xunasa
handalak		
haqoratomuz		xunob
haqqoniyat		xurofot
haqqush	xirurgiya	xurram
	xivich	
haqtalab	xixilamoq	xursand
Haqtaolo	xiyla (ancha)	xusumat
harkim	xiyobon	xushbo'y
har vaqt	xizr	
	xlorofill	
hardamxayol	xohish	
harf	xohlamoq	
hargiz	xokandoz	
harsillamoq		
	xolavachcha	
hasad	xoli	
hassos	xolis	
hatlamoq		

5-topshiriq. “Ikki yorti bir butut” Bittadan ibora beriladi uning ma’nosini aytish lozim.

1. **Ko'ngli yumshoq** - ko'ngichan, rahimdil
2. **Ko'ngi g'ash tortdi** - bir oz tashvish qildi
3. **Ko'nglida kiri yo'q** - kek saqlamaydigan, g'arazi yo'q
4. **Ko'nglini og'ritdi** – ranjitdi
5. **Ko'rgani ko'zi, otgani o'qi yo'q** - o'taketgan darajada yomon ko'rdi
6. **Ko'z ilg'amas** - cheksiz, poyoni ko'rinmaydigan
7. **Bino qo'ygan** - ortiqcha baho bergan
8. **E'tibor berdi** - diqqat bilan qaradi
9. **Do'ppisi tor ketdi** - itojsiz og'ir ahvot- ga tushdi
10. **Esi kirdi** 1) es-hushli bo'tdi; 2) angla- di, tushundi